

XAYBARIYNING "PARDES" (DARBADAR) HIKOYASI SYUJETI VA KOMPOZITSIYASI

Ibragimova Zulayxo Baymatovna
Magistr TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'ulom Gavs Xaybariyning "Pardes" ("Darbadar") hikoyasi tahlil etilib, unda vatandan ayriliq, muhojirlik, oila sadoqati va insoniylik mavzulari yoritilgan. Asar syujeti va kompozitsiyasi orqali muallif urush va beqarorlik tufayli o'z yurtidan judo bo'lgan oddiy insonlarning kechinmalari, vatan sog'inchi, yo'qotish va sabr-matонат kabi tuyg'ularni badiiy ifodalagan. Hikoyaning asosiy g'oyasi — insonning eng og'ir sinovlarda ham o'z vataniga, oilasiga va hayotga sodiq qolishidir.

Kalit so'zlar: G'ulom Gavs Xaybariy, "Pardes", "Darbadar", syujet, kompozitsiya, muhojirlik, realizm, vatan sog'inchi, oila, urush.

Hozirgi davrda tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak tafakkur, ijodkorlik, jamiyat oldida ma'suliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifani amalga oshirish, ma'naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Turli millatlarni bir-biriga bog'lab turuvchi madaniyatning asosiy omillaridan biri bu adabiyotdir. V.G.Belinskiy "Bir xalqning badiiy asarlarini boshqa xalq tiliga tarjima qilish ularning o'zaro yaqinlashishlariga, bir-biri bilan g'oyalar almashinishiga asos bo'ladi. ana shunda yangi badiiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi, deb aytgan edi.

XIX asrda dunyoga kelgan G'ulom G'avs Xaybariy o'zining hikoyalarida af'g'on xalqining turmush tarzi, oilaparvarlik ruhi, hayot qiyinchiliklari, sadoqat ruhi yo'g'rilgan mavzularni ilgari surgan. Uning ba'zi hikoyalarida yechim singari syujet unsuri kitobxonning badiiy tafakkuriga havola etilgan.

Uning qalamiga mansub "Pardes" (Darbadar) hikoyasining bosh mavzusi bir oilaning o'z vatanidan bosh olib ketishi, og'ir hayot kechirishi, mehnat mashaqqati, vatanga bo'lgan sog'inchi hissi ularni darbadarlikda tark etmasligidan iborat. Shuningdek, ushbu hikoyada oilaga bo'lgan ma'suliyat, sadoqat, mehr chuqur mazmun kasb etadi.

Farrux darbadarlikda ham oila a'zolari oldidagi burchini bajarish uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qiladi. Baxtga qarshi, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, insonparvarlikning yo'qligi tufayli o'g'li muhojirlar tomonidan o'g'irlanadi hamda ota o'z farzandini qidirib shaharga boradi va u yerda ayanchli fojiga duch keladi.

Hikoyada tugun aynan bosh qahramon shaharga o'g'lini qidirib kelishi va bomba portlashidan boshlanadi. Ayoli kasalxonada farzandini kutib yotadi, lekin farzandi topilmaydi. Farrux shaharda bomba portlashi natijasida bir oyog'idan ayriladi. Uning ko'z o'ngida dunyo qorong'ulashib ketadi. Endi qanday qilib farzandini qidirib topishi, kasalxonada farzandining kelishini intizorlik bilan kutayotgan rafiqasining ko'ziga qanday qaray olishi kabilar haqidagi hayollari uni yanada mushkul ahvolga solib qo'ygan edi.... (matn davom etadi, o'zgartirilmagan holda).

Hozirgi davrda tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, yuqori malaka, yuksak tafakkur, ijodkorlik, jamiyat oldida ma'suliyatni his etishni talab qiladi. Bu muhim vazifani amalga oshirish, ma'naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil olib borishni taqozo etadi.

Turli millatlarni bir-biriga bog'lab turuvchi madaniyatning asosiy omillaridan biri bu adabiyotdir. V.G.Belinskiy "Bir xalqning badiiy asarlarini boshqa xalq tiliga tarjima qilish ularning o'zaro yaqinlashishlariga, bir-biri bilan g'oyalar almashinishiga asos bo'ladi. ana shunda yangi badiiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi, deb aytgan edi.

XIX asrda dunyoga kelgan G'ulom G'avs Xaybariy o'zining hikoyalarida afg'on xalqining turmush tarzi, oilaparvarlik ruhi, hayot qiyinchiliklari, sadoqat ruhi yo'g'rilgan mavzularni ilgari surgan. Uning ba'zi hikoyalarida yechim singari syujet unsuri kitobxonning badiiy tafakkuriga havola etilgan.

Uning qalamiga mansub "Pardes" (Darbadar) hikoyasining bosh mavzusi bir oilaning o'z vatanidan bosh olib ketishi, og'ir hayot kechirishi, mehnat mashaqqati, vatanga bo'lgan sog'inch hissi ularni darbadarlikda tark etmasligidan iborat. Shuningdek, ushbu hikoyada oilaga bo'lgan ma'suliyat, sadoqat, mehr chuqur mazmun kasb etadi.

Farrux darbadarlikda ham oila a'zolari oldidagi burchini bajarish uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qiladi. Baxtga qarshi, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, insonparvarlikning yo'qligi tufayli o'g'li muhojirlar tomonidan o'g'irlanadi hamda ota o'z farzandini qidirib shaharga boradi va u yerda ayanchli fojiaga duch keladi.

Hikoyada tugun aynan bosh qahramon shaharga o'g'lini qidirib kelishi va bomba portlashidan boshlanadi. Ayoli kasalxonada farzandini kutib yotadi, lekin farzandi topilmaydi. Farrux shaharda bomba portlashi natijasida bir oyog'idan ayriladi. Uning ko'z o'ngida dunyo qorong'ulashib ketadi. Endi qanday qilib farzandini qidirib topishi, kasalxonada farzandining kelishini intizorlik bilan kutayotgan rafiqasining ko'ziga qanday qaray olishi kabilar haqidagi hayollari uni yanada mushkul ahvolga solib qo'ygan edi.

Hikoyaning syujeti vatandan ketish, darbadarlikda yurtni sog'inish va oila mavzusiga qaratilgan. Bu oila birga yashayotganiga 8 yil bo'lib, ularda faqat bitta farzandi tirik qoladi. Qolgan 3 nafar farzandi esa vafot etadi. Yolg'iz farzand erka bo'lgani kabi Chinorgul ham

crka bo'ladi. O'zi bir yashar bo'lsada lekin ko'rinishi uch yoshliga o'xshaydi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi notinchliklar tufayli bu oila o'z vatanini, o'z uyini tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Farrux o'qish-yozishni bilgan aqlli va savodli bo'lgan. Shunga qaramay, u o'z uyini oilasi bilan birgalikda tark etadi. Ular qochoqlar qo'nim topgan bir manzilgohda chodirga joylashishadi. Lekin bu chodirda huddi havoda yurganday yoki suv ustida yurganday o'zini his qilishar edi. Bu yerda ular vatan sog'inchi hissini yanada ko'proq tuyar edilar. Bu chodirda yashashni boshlaganlaridan beri ularga qorong'ulik do'st tutinadi.

Baxtjamoli savodsiz ayol bo'lishiga qaramay, juda sabr-bardoshli, irodasi metin, kuchli ayol bo'lgan. Uning hayotidagi bitta-yu bitta quvonchi - bu Chinorgul edi.

Bu hikoyada voqealar tizimining ketma-ketligi birinchi o'rinda vatandan ayriliqdan boshlanadi. Chodirda Baxtjamolining sog'lig'i yanada yomonlashadi, yuragining og'rig'i kundan-kunga zo'rayib borar edi. Farrux unga yordam berish uchun chodirga qarab turadigan kishiga pul berib, o'zi shaharga dori uchun borib kelardi, bir kuni u shahardan kech kelardi va Baxtjamolining yig'idan shishgan ko'zlarini ko'rib hayron qolardi. Chinorgulni yo'qolganini eshtib ko'z oldi qorong'ulashib ketadi. U farzandini hamma chodirlardan qidiradi, lekin topa olmaydi, yana shaharga borib farzandi haqida hammadan so'rab-surishtirardi. Lekin xech kim unga yordam bera olmas edi. Bir kuni shaharda farzandini qidirayotgan paytida bomba portlashi natijasida bir oyog'idan ayrilib kasalxonaga tushib qoladi. U yerdan chiqib Baxtjamoli yotgan kasalxonaga boradi, lekin kech bo'lgan edi. Baxtjamoli vafot edi, Farrux darbadarlikda o'z vatanidan judo bo'lgani yetmaganidek ayoli va rafiqasidan ham judo bo'ladi.

Hikoyada mamlakatdagi urushlar sababli oddiy qishloq oilalari o'z uylarini tashlab darbadarlikda yashashga majbur bo'lishi, darbadarlikda hayot og'ir va qiyin ekanligi, ularning insoniy huquqlari poymol etilayotganligi guvohi bo'lamiz. Farzandini topaman deb, bir oyog'idan ayrilib qolishi bu ham yetmaganidek rafiqasi ham vafot etishi bu hikoyani o'qigan har bir kishini larzaga soladi. Vatandan ayrolik, o'zga joylarda sarson-u sargardonlik tufayli hamma narsadari, yor-u birodardan, do'stlaridan mahrum bo'lgan Farrux o'z vataniga qayta olmasligidan, ilojsizligidan kuyunadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xaybariy ham boshqa afg'onlar kabi mamlakatdagi urush-janjallardan dili xufton, vatandagi

quvg'inliklardan ozor chekkan ijodkordir. Uning bu hikoyasida ulkan dard vatan sog'inchi, muhabbati va yurtidan judolik hissi aks etgan. Ushbu hikoyada qochoq afg'onlar turmush tarzining realistik tasviri berilgan. "Pardes" (Darbadar) hikoyasida vatan hajri, muhojirlik azoblari, mamlakatdagi buzg'unchiliklar, sarson-sargardonliklar, qorong'u kunlar azobi kabi og'ir voqeilik qalamga olingan. Hikoya qahramoni hikoya so'ngida yurtiga

qaytish uning tinchligi va gullab-yashnashni orzusini aytib duo qiladi. Xaybariy bu hikoyasi bilan mamlakatdagi notinchlik tufayli oddiy xalq jabr chekishini yaqqol tasvirlab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayeva, N. R. (2013). Texts of Lectures in the Subject of Synchronous Translation. Tashkent SIOS, Department of Translation Theory and Practice Tashkent, 2013-55 p.
2. Ismatullayeva, N. R. Translation of phraseological units in Chinese and Uzbek languages. In Scientific research of the SCO countries: synergy and integration (International conference). Beijing, PRC, June (Vol. 24, pp. 45-50).
3. Khudoyorovich, K. K., Rasuljanovna, I. N., Khalmuratovna, R. Z., & Eshkobilovna, K. D. (2020). The Issues of Word Choice in Fiction Translation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(04).
4. Ismatullayeva, N. R. (2020). Probability Prediction Strategy In Simultaneous Interpretation. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 1(01), 1-6.
5. Ismatullayeva, N. R. (2024). THE IMPORTANCE OF TRANSLATION SEMANTOGRAPHY IN INTERPRETER TRAINING. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 5(06), 5-9.